Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH.....	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Urkinbaev T. A.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNII	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	



TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOBİ VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Makkmov Zokirjon Xusanboyevich

Bojxona qo'mitasi ilmiy markazi boshlig'i
i.f.f.d. (PhD), dotsent

Email: zokir1871@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahonda elektron savdo hajmining ortishi va shu asosda xalqaro kuryerlik jo'natmalari tashqi savdoning eng dinamik segmentlaridan biriga aylangani tahlil qilingan. O'zbekistonda xalqaro kuryerlik jo'natmalari hajmi, ularning geografik tarkibi hamda bojxona to'lovlari tortilgan ulushi statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Shuningdek, xorij tajribasi misolida bojsiz olib kirish me'yorlarini qo'llash amaliyoti hamda ularni bekor qilish yoki cheklashning iqtisodiy va xavfsizlik jihatlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida xalqaro kuryerlik jo'natmalarida bojxona to'lovlari hisobini yuritish va auditini takomillashtirishning samarali mexanizmini yaratish imkoniyatlari tadqiq etilgan hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro elektron savdo, xalqaro kuryerlik jo'natmalari, bojxona to'lovlari, bojxona audit, bojxona ma'murchiligi, raqamli bojxona.

Abstract. This article analyzes the global growth of e-commerce, which has led international courier shipments to become one of the most dynamic segments of foreign trade. Based on statistical data, the volume of international courier shipments in Uzbekistan, their geographical structure, and the share subject to customs duties are assessed. In addition, drawing on foreign experience, the practice of applying duty-free import thresholds, as well as the economic and security implications of their cancellation or restriction, are examined. As a result of the study, the possibilities of developing an effective mechanism for accounting and auditing customs payments in international courier shipments are explored, and relevant recommendations are proposed.

Key words: international e-commerce, international courier shipments, customs payments, customs audit, customs administration, digital customs.

Аннотация. данной статье проанализирован рост объёмов электронной торговли в мире, в результате чего международные курьерские отправления превратились в один из наиболее динамично развивающихся сегментов внешней торговли. На основе статистических данных оценены объёмы международных курьерских отправок в Узбекистане, их географическая структура, а также доля отправок, облагаемых таможенными платежами. Кроме того, на примере зарубежного опыта рассмотрена практика применения норм беспошлинного ввоза, а также экономические и аспекты безопасности, связанные с их отменой или ограничением. По результатам исследования изучены возможности формирования эффективного механизма ведения учёта и аудита таможенных платежей в международных курьерских отправлениях и разработаны соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: международная электронная торговля, международные курьерские отправления, таможенные платежи, таможенный аудит, таможенное администрирование, цифровая таможня.

KIRISH

Jahonda elektron savdo tizimining jadal rivojlanishi natijasida pochta va kuryerlik jo'natmalari hajmining ortishi milliy iqtisodiyotlar raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi muhim omilga aylanib, ko'plab davlatlar mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va ichki bozor barqarorligini ta'minlash hamda xavfsizlik maqsadlarida bojsiz olib kirish me'yori – "Duty de minimis" (Ddm) hamda soliqsiz olib kirish me'yori – "Tax de minimis" (Tdm) ni optimallashtirishga intilmoqda.



Jahon bojxona tashkilotining Bosh kotibi Ian Saunders COVID-19 pandemiyasidan keyin onlayn xaridlar doimiy xarakterga aylangani va raqamli to'lov tizimlari keng tarqalishi, ayniqsa, bojxona to'lovlari qo'llanilmaydigan past qiymatli jo'natmalar (de minimis) hajmi so'nggi besh yilda ikki baravar oshishi bojxona xizmatlari uchun jiddiy qiyinchiliklar yaratayotganini ta'kidlaydi[1].

Ushbu qiyinchiliklarni minimallashtirish maqsadida JBT tomonidan 2018-yilda qabul qilingan (2022-yilda qayta ko'rib chiqilgan) E-tijorat Standartlar[2] doirasi 16 ta asosiy global standartni belgilaydi. Bular ilg'or elektron ma'lumotlar almashuviga, xavflarni boshqarishga, vakolatli iqtisodiy operator kontsepsiyasiga va zamonaviy tekshiruv texnologiyalariga asoslangan.

Mazkur standartlarni joriy qilingan 85 dan ortiq davlatlarda jo'natmalarni rasmiylashtirish vaqti bir necha kundan 24 soatgacha qisqardi, noqonuniy tovarlarni aniqlash samaradorligi oshdi va byudjet tushumlari yaxшилandi. Ayrim davlatlar "de minimis" chegaralarini pasaytirdi yoki umuman bekor qildi, chunki bu orqali noqonuniy savdoning kuchayishi va katta daromad yo'qotilishi kuzatilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Jon Edvin ta'kidlashicha[3] jahonda 2014-2024-yillar oralig'ida chakana e-tijorat savdosi 4-5 barobar (1,3 dan 7 trillion dollargacha, jo'natmalar soni 44 dan 185 milliardgacha) ko'paydi. Bojxona organlari endi kuniga millionlab mayda jo'natmalarni nazorat qilish muammosiga duch kelmoqda. De minimis tizimi — past qiymatli tovarlarni bojxona to'lovisiz o'tkazish — katta daromad yo'qotilishiga sabab bo'lmoqda.

Xususan, AQShda 2024-yilda kuniga 4 million jo'natma "de minimis" ostida kirdi, umumiy qiymati 67 milliard dollardan oshdi. Bu xorijiy sotuvchilarga mahalliy sotuvchilar ustidan 8-10% narx ustunligini berdi. Yevropada esa 2021-yilgacha 7 milliard yevro soliq yo'qotilgan. Shu sababli AQSh 2025-yilda ushbu tizimdan butunlay voz kechdi.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi qiymati 150 yevrogacha bo'lgan elektron tijorat jo'natmalari uchun QQS yig'ishni soddalashtirish va nazorat qilish maqsadida 2021-yilda «Import Bir Martalik To'xtash Punkti» (IOSS) tizimini joriy etdi. Tizim orqali elektron tijorat platformalariga sotuvchilarni tasdiqlash, xavfli tovarlarni aniqlash, soliq yig'ish va bojxona bilan hamkorlik qilish kabi talablar qo'yildi.

Millionlab jo'natmalar oldindan elektron ma'lumotlarsiz kelmoqda. Xususan, AQSh auditorlari 2019-2021-yillarda 75 million jo'natma noto'g'ri manzil ma'lumotlari bilan yuborilganligini aniqladi. Hali ham CN22/CN23 qog'oz shakllaridan foydalanilishi hamda ushbu hujjatlarda qo'lda yozilgan, nomuvofiq TIF TN kodlari bilan tasniflangan tovarlar e-tijoratda jiddiy muammo bo'lmoqda.

Tadqiqotchi JBTning standartlarini qabul qilish, e-tijorat platformalari tomonidan bojxona organlariga oldindan ma'lumot berish va qog'oz shakldagi pochta hujjatlaridan (CN22/CN23) voz kechish yuzasidan takliflar berilgan.

Xitoy Bojxona boshqarmasi tomonidan e'lon qilingan maqolada[4] bojxona tartib-taomillari orqali e-tijoratni boshqarishda Xitoyning «Uch ro'yxat moslashtirish» tizimi haqida gap boradi. Bunda buyurtma ro'yxati (e-platforma/sotuvchidan), to'lov ro'yxati (bank/to'lov tizimidan) va logistika ro'yxati (yetkazib beruvchidan) olinadi. Xitoy bojxonasining tizimi bu uchta ro'yxatni avtomatik tekshiradi va agar nomuvofiq bo'lsa, jo'natma qo'shimcha tekshiruvga jo'natiladi.

Shuningdek, E-tijoratni nazorat qilish uchun Tovarlari sifati va xavfsizligi bo'yicha monitoring markazi tashkil etilgan. Markaz quyidagi ma'lumot manbalaridan foydalanadi: bojxona tekshiruvlari, laboratoriya testlari, xalqaro ogohlantirishlar, salbiy media xabarlar, iste'molchilar shikoyatlari va boshqa davlat idoralari ma'lumotlari kabi. Shu bilan birga, Xitoy bojxonasini yirik e-tijorat platformalari bilan sifat boshqaruvi memorandumlari imzolagan. Bu kelishuvlar platformalardan mahsulot sifati va xavfsizlik nazoratini operatsion jarayonlarga kiritish va bojxona ogohlantirishlariga darhol javob berishni talab qiladi.

Lim Juyeon (Janubiy Koreya Bojxona xizmati) tadqiqotida[5] Koreyada elektron tijorat transchegaraviy savdoning asosiy shakliga aylanib, 2021-2024-yillar oralig'ida bitimlar soni 3 barobar (63 milliondan 180 milliongacha), jo'natmalarda topilgan narkotik moddalar hajmi 2,2 barobar ko'paygani ta'kidlangan.

Shuningdek, Koreya Bojxona Xizmati 2017-yilda Bojxona chegara maqsadli markazini tashkil etdi va 2018-yilda sun'iy intellekt asosli xavf boshqaruvi tizimini joriy qildi. Tizim musodara tarixi ma'lumotlar bazasidan foydalanib, har bir ko'rsatkich bo'yicha xavf darajasini baholaydi. Natijada e-tijorat import 2,85 barobar oshganiga qaramay, yuqori xavfli yukni tahlil qilish vaqti bir soatdan bir daqiqagacha qisqardi. Bu yiliga 95 million dollar tejashga zamin yaratdi.

Koreyada tashqi savdo yuklari 2023-yildan boshlab sun'iy intellektga asoslangan rentgen tasvir tahlili tizimi joriy etildi. Algoritm tasvirlarni shakl, zichlik va atom raqamlari asosida tahlil qilib, qurol-yarog, narkotik moddalar va taqiqlangan tovarlarni avtomatik aniqlaydi.



Yuqorida o'rganilgan xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo elektron tijoratning keskin o'sishi bojxona organlari uchun yangi vazifalar va xavflar yaratganini ko'rsatadi. Eng asosiy global tendensiya – past qiymatli jo'natmalar (de minimis), oldindan ma'lumotlarning yetishmasligi, noqonuniy tovarlar oqimi va soliq yo'qotishlarining kuchayishidir. Raqamli texnologiyalar – blokcheyn, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan xavf tahlili, uch tomonlama ma'lumot moslashtirish – ilg'or davlatlarda e-tijoratni tez, xavfsiz va shaffof boshqarishning asosiy vositasiga aylangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan statistik tahlil, induksiya va deduksiya, kuzatuv, modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda xalqaro kuryerlik jo'natmalari orqali jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy ehtiyoj uchun olib kirilayotgan tovarlar bo'yicha Ddm va Tdm – bir kalendar oy uchun 200 AQSH dollari etib belgilangan.

O'zbekistonda xalqaro kuryerlik jo'natmalari hajmi so'nggi yillarda jadal o'sish tendensiyasiga ega. Xususan, 2024-yilda kuryerlik jo'natmalari hajmi 41 foizga oshib, 167,0 mln AQSH dollarini (2023-yilda — 118,5 mln AQSH dollari) tashkil etgan¹.

2025-yilning 9 oyida esa 120,8 mln AQSH dollari miqdorida kuryerlik jo'natmalari asosan Xitoy (30,3%), Rossiya (24,7%), AQSH (18,8%), Turkiya (7,7%) va Germaniya (6,6%) davlatlaridan yuborilgan. Shu bilan birga, jami kuryerlik jo'natmalarining atigi 2,3 foizi (2,8 mln AQSH dollari) bojxona to'lovlariga tortilgan.

Mazkur jo'natmalar bo'yicha jo'natma egalaridan 11,8 mlrd so'm bojxona to'lovlari undirilgan bo'lib, shundan 74 foizi yagona bojxona to'lovi, 9 foizi qo'shilgan qiymat solig'i, 8 foizi import boji va 9 foizi bojxona yig'imlariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, tashuvchilardan bojxona rasmiylashtiruv uchun 53,4 mlrd so'm yig'im undirilgan. Bu esa kuryerlik jo'natmalarida tashuvchilar orqali undirilayotgan bojxona to'lovlari jo'natma egalariga nisbatan 4,5 barobar yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, past qiymatli importni bojsiz olib kirish mexanizmi ko'p hollarda byudjet yo'qotishlari va xavfli tovarlar kirib kelishining ortishiga olib kelmoqda. Masalan, AQSHda 2024-yilda Ddm va Tdm me'yorlaridan ortiq bo'lgan 1,4 mlrd AQSH dollariga teng jo'natmalar kirib kelgan bo'lib, bu jami hajmning 2,2 foizini tashkil etgan.

Past qiymatli import orqali giyohvandlik va psixotrop moddalar, qalbaki mahsulotlar hamda majburiy mehnat asosida ishlab chiqarilgan tovarlarni olib kirish holatlarining ortishi sababli, 2025-yil sentyabridan AQSHda pochta va kuryerlik jo'natmalari uchun Ddm va Tdm me'yorlari bekor qilindi. Shu bilan birga, barcha jo'natmalar Automated Commercial Environment (ACE) elektron tizimi orqali 10 xonali TIF TN kodi asosida rasmiylashtirilishi bojxona to'lovlari hisobini yuritishni sezilarli darajada yengillashtirdi.[6]

Xitoyda pochta va kuryerlik jo'natmalarida har qanday tovarlar uchun Ddm va Tdm miqdori amalda mavjud emas – ya'ni 0 CNY (nol limit). Biroq, barcha tovarlar uchun bojxona to'lovlari (bojlari va soliqlar) umumbelgilangan tartibda hisoblanib, shaxsiy ehtiyoj uchun tovarlardan hisoblangan to'lovlar summasi 50 CNY (≈ 7 AQSH \$)dan kam bo'lganda to'lovlar undirilmaydi.[7]

Janubiy Koreyada xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari bo'yicha Ddm va Tdm me'yori (ayrim turdagi tovarlar: kosmetikadan tashqari) 150 AQSH dollarga teng. Davriylik me'yori belgilanmagan, ammo jismoniy shaxslar nomiga jo'natmalar juda ko'p marotaba qabul qilinganda (sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari asosida ishlaydigan Customs Risk Management System tizimi orqali) tijorat faoliyati sifatida baholanadi va bojsiz rejim qo'llanilmasdan umumbelgilangan tartibda to'lovlar undiriladi. Jo'natmalar haqidagi ma'lumotlar oldindan taqdim etiladi va to'lovlarni kuryer kompaniyalari xaridor nomidan amalga oshiradi.[8]

Dunyo mamlakatlarida xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari orqali olib kirilayotgan tovarlar bo'yicha Ddm va Tdm me'yorini qayta ko'rib chiqish va soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirishga, xususan QQS va aksiz soliqlarini Tdm me'yorini qo'llamagan holda to'liq undirish tizimiga o'tmoqda.

Shu bilan birga, "Bojxona kirim orderining shakli va uni to'ldirish qoidalarini tasdiqlash haqida"gi buyruq (ro'yxat raqami 3525, 04.07.2024-y. 3-bob 1-band 12-xatboshi)ga ko'ra "BKO turi" grafasida xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuborilayotgan tovarlari uchun – XP ko'rsatiladi. Milliy qonunchilikda xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari uchun alohida miqdor va davriylik me'yori belgilangan bo'lsa-da, pochta (XP) va xalqaro kuryerlik (XK) jo'natmasiga ajratilmaganligi, me'yordan ortiq yoki tijorat maqsadida deb topilgan jo'natmalarni rasmiylashtirishda ularning bir xil tasniflanishi hisobotlar tizimini noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

¹ Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston uchun amaliy yo'nalishlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

JBTning E-tijorat standartlarini bosqichma-bosqich to'liq joriy etish;

De minimis chegaralarini qayta ko'rib chiqish, soliqqa tortishni optimallashtirish;

oldindan elektron ma'lumot (EAD) majburiyligini kuchaytirish va CN22/23 qog'oz shakllaridan voz kechish;

Xitoy tajribasi asosida "uch ro'yxat moslashtirish" modelini yaratish: buyurtma – to'lov – logistika;

Dubay modeli asosida AI integratsiyalashgan yagona e-tijorat platformasini yaratish;

SI rentgen tahlili, katta ma'lumotlar markazini rivojlantirish;

E-tijorat platformalari bilan majburiy sifat va xavfsizlik monitoringi bo'yicha memorandumlar joriy etish.

Alohida davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, e-tijoratning jadal o'sishi bilan kurashishning yagona yo'li – raqamlashtirish, avtomatlashtirish va oldindan ma'lumotga asoslangan xavf boshqaruvidir.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro kuryerlik jo'natmalarida amaldagi yagona bojxona to'lovi stavkasini pasaytirgan holda bojsiz olib kirish me'yorini bekor qilish va bojxona to'lovlarini tashuvchilardan undirish orqali bojxona to'lovlari hisobi va auditini soddalashtirish mumkin deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, "Bojxona kirim orderining shakli va uni to'ldirish qoidalarini tasdiqlash haqida"gi buyruq (ro'yxat raqami 3525, 04.07.2024-y.)ga ko'ra "BKO turi" grafasini alohida pochta va xalqaro kuryerlik jo'natmalari bo'yicha hisobotlar tizimini takomillashtirish maqsadida "Xalqaro pochta – XP" va "Xalqaro kuryerlik – XK"ga ajratish bojxona to'lovlari hisobini yuritish va nazorat qilishni soddalashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ian Saunders. Bojxona organlarining transchegaraviy elektron tijoratni boshqarish imkoniyatini kengaytirish. "WCO News" jurnali 2025-yil 3(108)-son. <https://www.wcoomd.org>
2. Jahon bojxona tashkilotining E-tijorat Standartlar-2018 (2022-yilda qayta ko'rib chiqilgan) https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/global/pdf/topics/facilitation/activities-and-programmes/ecommerce/wco-framework-of-standards-on-crossborder-ecommerce_en.pdf
3. Jon Edvin Meyn (Aliansa Prokomeks ijrochi kordinatori. Braziliya) E-tijoratning burilish nuqtasi: Bojxona, muvofiqlik va "De minimis"ning tugashi. <https://mag.wcoomd.org/magazine/wco-news-108-issue-3-2025/e-commerce-at-a-turning-point/>
4. Xitoy bosh bojxona boshqarmasi. Transchegaraviy elektron tijoratni soddalashtirishda raqamli innovatsiyalar. <https://mag.wcoomd.org/magazine/wco-news-108-issue-3-2025/china-digital-innovation-e-commerce/>
5. Lim Juyeon (Janubiy Koreya Bojxona Xizmati) Koreya bojxona xizmatining raqamli innovatsiyasi va e-tijorat. <https://mag.wcoomd.org/magazine/wco-news-108-issue-3-2025/korea-customs-services-e-commerce/>
6. (The de minimis exemption is ending: Is your business ready? Gail Cole, Aug 2025. <https://www.avalara.com/blog/en/north-america/2024/11/de-minimis-exemption-changes-coming.html>)
7. China country guide. 2025 Zonos https://zonos.com/docs/guides/country-guides/china?utm_source=chatgpt.com
8. Compendium of Case Studies on E-Commerce. WORLD CUSTOMS ORGANIZATION 6 th edition June 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>